

# **“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida 2023-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida**

## **UMUMIY HISOBOT**

### **I. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida Korrupsiyaga qarshi chora tadbirlar dasturi bajarilgani to’g’risida umumiy axborot.**

“Mikrokreditbank” ATBda 2023 yil uchun mo’ljallangan bir qator chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Jumladan: Bank Boshqaruvining 2023-yil 25-martdagi 90-sonli Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentining 2023-yilda bankdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan, ushbu chora tadbir rejasida belgilangan **21 ta** (yigirma bir) vazifa, takliflar va masalalar ijrosi to’liq taminlangan. Shuningdek “Mikrokreditbank” ATBda 2023-2025-yillarga mo’ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha “Yo’l xaritasi” ishlab chiqilgan bo’lib bugungi kunda 2023-yilga mo’ljallangan **16 ta** (o’n olti) vazifalar ijrosi to’liq ta’minlangan, shu bilan birga Bank Boshqaruvining 2023-yil 6-oktabrdagi “Mikrokreditbank” AT bankida Korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturida belgilangan 46 ta (qirq olti) topshiriqning 2023 yilga mo’ljallangan **25 tasi** (yigirma besh) ta’minlangan bo’lib, qolgan topshiriqlar o’rnatilgan muddatlarda bajarilayotganligini ma’lum qilamiz.

### **II. Siyosat va tartib taomillar**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha bankning barcha tarkibiy bo’linmalarini va hududiy filiallarini tartibga solish maqsadida Bank boshqaruvi tomonidan hisobot davrida amaliyotga tadbiriq etilgan quyidagi ichki xujjatlar tasdiqlangan:

- 1)“Mikrokreditbank” ATBda Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo’yicha aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan murojaatlarni ko’rib chiqish TARTIBI**
- 2)“Mikrokreditbank” ATB tizimida xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o’qitilishini tashkil qilish bo’yicha YO’RIQNOMA**
- 3)“Mikrokreditbank” ATBga ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish YO’RIQNOMASI**
- 4)“Mikrokreditbank” ATBning kontragentlarni tekshiruvini o’tkazish bo’yicha YO’RIQNOMA**

- 5) "Mikrokreditbank" ATBning korrupsiya xavflarini baholash va aniqlash uslubi to'g'risidagi NIZOM
- 6) "Mikrokreditbank" ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining monitoringi va nazorati to'g'risidagi NIZOM
- 7) "Mikrokreditbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risida hisobot berish, hisobotlarni tasdiqlash va oshkor qilish tartibi to'g'risidagi NIZOM
- 8) "Mikrokreditbank" ATBda bank xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish tartibi to'g'risidagi REGLAMENT
- 9) "Mikrokreditbank" ATB xodimlari uchun korporativ odob-ahloq Kodeksi
- 10) "Mikrokreditbank" ATB odob-axloq Komissiyasi to'g'risidagi NIZOM
- 11) "Mikrokreditbank" ATBning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy tekshiruvlar o'tkazish to'g'risidagi NIZOM
- 12) "Mikrokreditbank" ATB tizimidagi korrupsiya haqida xabar bergan yoki uni oldini olishga ko'maklashgan bank xodimlarining xavfsizligi kafolatlari va ularni rag'batlantirish hamda korrupsiyani oldini olishda sustkashlikga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan choralar ko'rish to'g'risidagi NIZOM
- 13) "Mikrokreditbank" ATB korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi SIYOSATI
- 14) "Mikrokreditbank" ATB korrupsiyaga qarshi nazorat Departamenti to'g'risidagi NIZOM
- 15) "Mikrokreditbank" ATBda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va tartibga solish to'g'risidagi NIZOM
- 16) "Mikrokreditbank" ATBning sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, xayriya faoliyati va homiylik to'g'risida SIYOSATI

### **III. Xavf-xatarlarni baxolash**

Bank boshqaruvi tomonidan 2023-yil 25-iyuldagi 155-sonli "Mikrokreditbank" ATBning Korrupsiyaviy xavf xatarlar XARITASI tasdiqlangan, ushbu xaritada bankning barcha bo'limlarida inson omili ishtirok etadigan jarayonlarda korrupsion xavflarni aniqlash va mavjud xavflarni oldini olish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Shuningdek 2023-2024-yillarga mo'ljallangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib mazkur xaritada xavf darajasi yuqori, o'rta va past toifalarga bo'lingan bo'lib hududiy bank

filiallarini ham qamrab olingan. Mazkur xavf-xatar xaritasini baxolash jarayonida yangi aniqlangan xavf xatarlar xam joylashtirilgan.

#### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar**

##### **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.**

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida Personalni boshqarish departamenti tomonidan o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linma xodimlari tomonidan to'ldirilgan yillik deklaratsiyada manfaatlar to'qnashuv aniqlanmaganligi ma'lum qilingan.

"Mikrokreditbank" ATBning markaziy apparatida, viloyat mintaqaviy, tuman filiallari, BXO va BXMning barcha xodimlari yillik deklaratsiyani to'ldirganligini inobatga olgan holda, hisobot davrida bankda 3 582 nafarga yaqin xodim ishlashi va deklaratsiya to'ldirgan xodimlar ulushi 100% ga tengligi ma'lum qilingan.

##### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish**

Bankning xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomasida Korrupsiyaga qarshi qoidalar alohida band qilib kiritilgan, shuningdek xarid jarayonida bank bilan bevosida shartnomaviy shartlarga kirishadigan kontragentlar uchun Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tilxat olinadi (bunda korrupsion xolatlarni qastdan bevosita yoki bilvosita sodir etganligi uchun va manfaatlar to'qnashuvi xolatlariga yo'l qo'yganligi uchun javobgarlik nazarda tutilganligi belgilangan).

##### **Kontragentlarni tekshirish**

Bankning Xaridlar bo'limi tomonidan hisobot davrida 17 ta kontragentga nisbatan tekshiruvlar o'tkazilgan va tahlil natijalariga muvofiq, ushbu kontragentlarga nisbatan xech qanday xavf darajasi aniqlanmagan.

##### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish Yo'riqnomasi tasdiqlangan. Ushbu yo'riqnomaga asoslangan holda xodimlarni tanlov natijalaridan kelib chiqib, yakuniy bosqichga yetib kelgan xodimlar ustidan tekshiruv o'tkaziladi va tegishli tartibda rozilik beriladi. Bunda xodimning sudlanmaganligi, jinoiy

javobgarlikga tortilmagani, oxirgi ish joyidan salbiy hulosa olinmagani va oilaviy sharoiti inobatga olinadi. Hisobot davrida  ta nomzodlar o'rganildi va tegishli hulosalar berildi.

## V. Ta'lim va kommunikatsiya

Korrupsion holatlarni bartaraf etish uchun Bankning bosh ofisi xodimlari, Amaliyot bo'limi, Toshkent shahar Qorasaroy filiali, Toshkent shahar boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Andijon, Namangan Farg'ona va Samarqand viloyatlari xodimlariga bir qator seminar treninglar tashkil etildi. Bundan tashqari bankda xodimlarni individual o'qitish va rivojlantirish uchun onlayn platforma **“TRAINING MKB”** tashkil etilgan bo'lib, unda **“ANTIKORRUPSIYA 2023, BANKDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH”** mavzularida xodimlar viktorina, video darslar va testlar orqali o'z bilimlarini oshirib borishdi.

Shuningdek korrupsion holatlarga duch kelmaslik va uni barvaqt oldini olish maqsadida doimiy ravishda filiallarda ichki nazorat tadbirlari o'tkazish maqsadida, bankning viloyat mintaqaviy filiallarida **ICHKI-TRENERLAR** tasdiqlanib onlayn shaklda reja-grafikga asosan o'quv mashg'ulotlari o'tkazib kelinadi.


Shu bilan birgalikda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb qilgan holda davra suhbatlari tashkil etilib **3582** nafarga yaqin xodimlar tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

Bank boshqaruvining topshirig'iga binoan bankning barcha tegishli departamentlari xodimlari hamda hududiy viloyatlarning jami **89** nafar xodimlari xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish maqsadida “Xalqaro menejment tizimi” **ISO 37001:2016** qoidalari bo'yicha malaka oshirib tegishli sertifikatlarga ega bo'lishdi.

## VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar


“Mikrokreditbank” ATB Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentiga 2023 yil davomida jami jismoniy va yuridik shahslardan **72** murojaat kelib tushgan. Mazkur murojaatlar hududlar kesimida, yani: Samarqand viloyatida **14** ta Qashqadaryo viloyatida **14** ta Xorazm viloyatida **2** ta Andijon viloyatida **1** ta, Farg'ona viloyatida **12** ta, Surxondaryo viloyatida **9** ta, Sirdaryo viloyatida **1** ta, Navoiy viloyatida **2** ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida **4** ta, Andijon viloyatida **1** ta, Toshkent viloyatida **1** ta, Namangan viloyatida **5** ta, Jizzax viloyatida **3** ta va Toshkent shahrida **3** ta.

## Kelib tushgan xabarlar



Yil davomida aloqa kanallari tomonidan kelib tushgan xabarlar va murojaatlar soni, Jumladan elektron pochta orqali ([mkbantor@mkb.uz](mailto:mkbantor@mkb.uz)) 11 ta (o'n bir) xabar, rasmiy veb-sayt orqali ([www.mkbank.uz](http://www.mkbank.uz)) 9 ta (to'qqiz) xabar telegram bot orqali ([@mkbantor\\_bot](https://t.me/mkbantor_bot)) 17 ta (o'n yetti) xabar Ishonch telefoni orqali (+998 55 503-77-11) 130 ta (bir yuz o'ttiz). Viloyatlar kesimida Surxondaryo viloyatida 14 ta, Samarqand viloyatida 13 ta, Qoraqalpog'iston respublikasida 21 ta, Jizzax viloyatida 21 ta, Qashqadaryo viloyatida 22 ta, Namangan viloyatida 9 ta, Andijon viloyatida 11 ta, Xorazm viloyatida 8 ta, Sirdaryo viloyati 16 ta, Toshkent shahar 14 ta, Toshkent viloyati 11 va Farg'ona viloyati 7 ta.

## Aloqa kanallari orqali kelgan murojaatlar



## **VII. Monitoring va nazorat**

2023-2024-yillarga mo'ljallangan Monitoring reja grafigiga asosan hisobot davrida bir qator vazifalar ijrosi ta'minlandi va mazkur vazifalar Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish jurnalida qayd etildi.

## **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

Hisobot davrida Personalni boshqarish departamenti tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi ta'lablar xodimlar tomonidan buzilmaganligi ma'lum qilingan.

## **IX. Xulosalar**

“Mikreokreditbank” ATBda hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida hisobot davrida va o'tgan yilning mos davrida korrupsiyaga nisbatan amalga oshirilgan tadbirlar, OAVdagi chiqishlar, o'tkazilgan seminarlar va xodimlarni huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli vazifalar o'z natijasini bermoqda.

Hususan o'tkazilgan nazorat tadbirlari, seminarlar, davra suhbatlari va OAVdagi maqolalar 2022-yilgi statistika bilan solishtirganda 2023-yilda ko'rsatkichlarimiz 1.5 barobar ko'p (indikatorning 5.1-5.2-5.3 bandida to'liq ko'rsatilgan).

ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatini bo'yicha 2022 yilda bankning 3 nafar xodimi malaka oshirib sertifikatga ega bo'lgan bo'lsa 2023 yilning mos davrida bankning 89 nafar xodimi malaka oshirib ushbu sertifikatga ega bo'ldi.

Shu bilan birgalikda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda bir qator seminar treninglar o'tkazilib xodimlarga kerakli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek aloqa kanallarini keng targ'ib qilish, mijozlar va fuqarolar tomonidan bankda qonun buzilishi yoki ta'magirlik kabi vaziyatlarni guvohi bo'lishganida zudlik bilan ishonch raqamlarimizga va ishonchli manbaalarimizga aloqaga chiqishlari uchun ma'lumotlar stendi chop etildi va kutish zallari monitorlarida aloqa kanallari bo'yicha video-qo'llanmalar tayyorlanib mijozlar va fuqarolar e'tiboriga havola etildi.

Bank tizimida kredit ajratish jarayonidagi bank xodimlarining aloqadorligini aniqlash va qonun buzilishiga yo'l qo'ymasligini oldini olish uchun xar oy yakuni bilan ajratilgan kreditlarni monitoringi amalga oshiriladi va aniqlangan qonun buzilish holatlari bo'yicha chora ko'rish hulosasi kiritiladi.

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.**

Bank tomonidan eng asosiy vazifa sifatida 2024-yilning 1-choragida xalqaro ISO 37001 sertifikatiga ega bo'lish ko'zda tutilgan va ushbu sertifikatni olish bo'yicha dastlabki xarakatlar boshlangan.

Xodimlarning malakasini oshirish va jahon tajribasini o'rganib bank faoliyatiga tadbir etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentining 8 nafar xodimlari chet-el mamlakatlariga malaka oshirish uchun yuborilishi rejalashtirilgan.

**“Mikrokreditbank” ATB Korrupsiyaga qarshi  
nazorat departamenti direktori v.b**



**R.Jurayev**